



QADIMGI POP SHAHAR XAROBALARI O'RGANILISHINING AYRIM MASALALARI

Aloxunov Alisher Axmadjonovich

*FarDU Jahon tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

Abduvaliyeva Nozima Abdushukur qizi

Arxeologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada arxeologik qazishmalarda qo'lga kiritilgan materiallar asosida ba'zi bir yozma manbalarda tilga olingan o'rta asr shaharlari, xususan Pop-Bab-Pab shahri tarixiga doir ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, arxeolog olim B.X.Matboboyevning arxeologik qazishmalari natijasida Pop shahar xarobasidan ilk o'rta asrlar materiallari topib o'rganilganligi, shaharning paydo bo'lishi va rivojlanishi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, ilk o'rta asrlar, arxeologik ekspeditsiya, yozma manbalar, kichik va katta shaharlар, Pop (Balandtepa), ark, shahriston, rabod.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ РУИН ДРЕВНЕГО ПАПСКОГО ГОРОДА

Алохунов Алишер Ахмаджонович

старший преподаватель кафедры Всемирной истории, доктор философии
по историческим наукам (PhD)

Абдувалиева Нозима Абдушукуровна

магистрант 2 курса Археологии

Аннотация: В данной статье на основании материалов, добытых при археологических раскопках представлены сведения по истории средневековых городов, в частности, города Пап-Баб-Паб, который упоминается в некоторых письменных источниках. Также представлены сведения о том, что в результате археологических раскопок ученого-археолога Б.Х.Матбобоева на городище Пап были обнаружены и изучены материалы раннего средневековья, а также данные о динамике возникновения и развития города.

Ключевые слова: Ферганская долина, раннее средневековье, археологическая экспедиция, письменные источники, малые и большие города, Пап (Баландтепа), цитадель, шахристан, рабад.





SOME QUESTIONS IN STUDYING THE RUINS OF THE ANCIENT POP CITY

Alokhunov Alisher Akhmadjonovich

Senior Lecturer of Department of World History

PhD of historical sciences

Abduvaliyeva Nozima Abdushukurovna

2nd year master's student in Archaeology

Abstract: This article, based on materials obtained during archaeological excavations, provides information on the history of medieval cities, in particular, the city of Pap-Bab-Pab, which is mentioned in some written sources. Information is also provided that as a result of archaeological excavations by the scientist-archaeologist B.Kh.Matboboyev, materials of the early Middle Ages were discovered and studied at the settlement of Pap, as well as data on the dynamics of the emergence and development of the city.


Keywords: Ferghana Valley, early middle ages, archaeological expedition, written sources, towns and cities, Pap (Balandtepa), citadel, shahristan, rabad.

Adabiyotlarda «O'rta Osiyo javohiri» deb nom olgan Farg'ona vodiysi suv manbalariga boy, iqlimi mo'tadil, tuprog'i unumdar bo'lib, bu zaminda insonni yashab mehnat qilishi uchun juda qulay tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Shuning uchun bu hudud Turonzaminning yirik tarixiy-madaniy o'choqlaridan biri hisoblanib, umumbashariyat madaniyatiga qo'shgan munosib hissasi tufayli «Farg'ona sivilizatsiyasi» degan nom ostida jahon tarixiga kirgan [10, 6].

Farg'ona vodiysining arxeologik majmularida shaharsozlik va davlatchilikning dastlabki shakllari yaxshi o'rganilgan Marg'iyona, Baqtriya, Sug'd va Xorazm kabi tarixiy-madaniy vohalar bilan qiyosiy solishtirilgan. Baqtriya va Sug'ddagi yodgorliklarning joylashuvi, ularning moddiy madaniyati va ilk shaharlari vodiydagi aynan shunday jarayonlar bilan ko'plab o'xshashliklarga ega. Jumladan, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji birinchi galda aholi sonining ortishi va dehqonchilik vohalarining ko'payishiga olib kelgan [8, 150; 14].

Milodiy I mingyllikning birinchi yarmida Farg'onada o'nlab shaharlar va ularning boshini biriktirgan bir qator siyosiy-ma'muriy markazlar mavjud bo'lgan. Xitoy, arab-fors tilidagi yozma manbalar va arxeologik qazishmalarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida Axsikent, Koson, Quva, O'zgand, Isfara kabi shaharlar mavjud bo'lib, ular vodiydagi bir qator shahar va yirik aholi maskanlarini o'z ichiga oluvchi alohida-alohida siyosiy-ma'muriy markaz, ya'ni boshqaruv vazifasini bajarishgan[13, 79].

Ilk o'rta asrlarga xos bir qator belgilarni mujassamlashtirgan - ko'xandiz, shahriston va rabodlardan iborat Farg'ona shaharlarini tarix fanlari doktori, professor B.X.Matboboyev ikki xil ekanligini ta'kidlaydi:





1) Maydoni 5 gektargacha bo'lgan kichik shaharlar. Tarixiy topografiyasiga ko'ra, ular ikki tarkibiy qismlarga bo'linadilar va ular ayrim olingen voha markazi vazifasini bajargan.

2) Maydoni 5–15 gektargacha bo'lgan katta shaharlar. Ular atrofi mahobatli mudofaa inshootlari bilan o'ralgan va uch tarkibiy qismga ajraladi. Ular hunarmandchilik, savdo-sotiq, diniy va siyosiy-madaniy markaz vazifasini bajargan [10, 44].

O'rta asrlarda yashab o'tgan jo'g'roflar Shimoliy Farg'onadagi bir necha shaharlarning nomlarini qoldirganlar. Bular Axsikent, Koson, Bab, Asht, Tisxan, Jingil va boshqalar. Ushbu shaharlar ornida hozirgacha yirik aholi punktlari yoki shaharlar mavjud [11, 39].

Biz quyida to'xtalib o'tadigan vodiydagi ko'hna shahar – Pop (Balandtepa) yodgorligi katta shaharlar sirasiga kiradi. Farg'onaning qadimgi shaharlaridan biri o'rta asrlarda Bob, Pob nomlari mashhur bo'lgan qadimgi shaharning xarobasi hozirda Namangan viloyatining Pop deb ataluvchi shahridan 2 km janubda Sirdaryo o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, yodgorlik ilmiy adabiyotlarga «Balandtepa» (mahalliy aholi Munchoqtepa-Ayrtom shahri deb ataydi. Ya'ni Munchoqtepa va Ayrtom (Ayrtom shahri) bir yodgorlikni ikki xil nomlanishi) nomi bilan kirgan.

Yozma manbalarda Pop to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar X asrda yashab o'tgan arab geograf olimlari al-Istaxriy, va al-Muqaddasiylarning asarlarida qayd qilingan bo'lib, shahar «Bob» nomi bilan tilga olinadi.

«Hudud ul-olam» asarida keltirilgan ma'lumotlarda bo'lsa, mazkur shahar «Pob» deb atalgan. Ushbu asardagi ma'lumotlarga ko'ra, Pob ekinzorlari ko'p, obod shahar sifatida mashhur bo'lgan. Temuriylar davriga kelib, Pop qal'asi strategik qo'rg'on sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan Mirzo Bobur «Boburnoma» asarida Pop qo'rg'onida yuz bergen voqealar xususida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi [1, 168].

Pop (Balandtepa) yodgorligi ilk bor 1939-yili Katta Farg'ona kanali qazilishi paytida tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiya tomonidan aniqlangan [9, 53]. Keyinroq, Balandtepada Namangan viloyat o'lakashunoslik muzeyi xodimlari I.Malenkov va A.Shlezlar izlanishlar olib borganlar [3].

1946–1948 va 1950–1952-yillarda A.N.Bernshtam rahbarligida Munchoqtepa va Balandtepa yodgorliklarida arxeologik qidiruv ishlari olib borildi [4]. Shundan keyin turli yillarda M.E.Voronets [5, 93], V.I.Sprishevskiy [12], I.Ahrorov [2, 108] lar arxeologik qazishma ishlarini olib bordilar.

1983-yili M.X.Isomiddinov Balandtepada tadqiqot ishlari olib borib, yodgorlik tarhini ishlab chiqdi va kichik qazuv ishlari o'tkazdi [7]. Yodgorlikning Farg'ona tarixi va madniyatini o'rganishdagi muhim ahamiyatini sezgan M.X.Isomiddinov B.X.Matboboyevga bu yerda qazishma o'tkazishni tavsiya etdi. 1987-yilda Axsiket otryadining moliyaviy yordami bilan Boqijon Matboboyev ushbu yodgorliklarda arxeologik qazishma ishlarini boshladi va 1987–1996-yillar davomida bu yodgorliklar majmuasida arxeologik ilmiy qidiruv ishlarini olib bordi. Asosiy e'tibor Pop shahrining





tarixi bilan bog'liq yodgorliklarni o'rghanishga qaratildi. Asosan qazishma ishlari Pop (Balandtepa)da o'tkazildi.

Yodgorlik to'rtburchak shaklli tarhga ega, balandligi ba'zi joylarda 13 metrgacha boradi. Yodgorlikning uchdan birini, ayniqsa arkning katta bo'lagini Sirdaryo yuvib ketgan, ammo uning saqlanib qolgan qismining relefida uning ark ekanligi kuzatiladi. Shunday qilib, Pop shahar tuzilishining quyidagi tarkibiy bo'laklari ma'lum bo'ldi:

1. Ark – Balandtepaning janubiy-sharq tomonida joylashgan, deyarli yarmi buzilib ketgan tepe holida saqlangan.

2. Shahriston (yoki ichki shahar) – Balandtepaning shimol va shimoliy-g'arb tomonida saqlangan, ammo uning shimol, g'arb va janub tomonlari buzilib ketgan. Ark bilan shahriston o'rtasidagi qadimgi xandaq o'rniда hozir chuqur jarliklar paydo bo'lgan.

3. Rabod (yoki tashqi shahar) – Balandtepaning shimol va g'arbdagi hudud, uni mahalliy aholi Munchoqtepa-Ayrtom shahri, yana uni Temirqasmoqtepa deb ham yuritadi. Shaharning bu qismidan o'rta asrlarga oid materiallar borligi aniqlangan.

3A. Shaharning bu qismini shartli ravishda «shahar qabristoni» (Munchoqtepa I, II) deb ajratildi [10, 54-55].

1987-1996-yillarda Pop ko'hna shahri bo'yicha to'plangan materiallar va avval aniqlangan arxeologik topilmalar asosida shaharning qadimgi va o'rta asrlar tarixini arxeolog B.Matboboyev quyidagicha davrlashtirishni taklif etdi [15]:

I bosqich – yangi era boshlari. Pop shahar xarobasidan to'plangan materiallar, ya'ni arkda solingan shurfning quyi qatlamlaridan shaharning ichki qismida o'tkazilgan 2-qazishmadan va shahar qabristoni atrofidan yig'ilgan topilmalar tahlil qilindi. Shahar yoshini va uning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda kulolchilik mahsulotlari alohida ahamiyat kasb etdi. Masalan, shaharning quyi qatlamidan yupqa, loyi sifatli, xumdonda bir maromda pishirilgan sopollar topildi. Sopol idishlar to'q qizil, to'q jigar rangli angoblarga bo'yalgan, ba'zida sopolning har ikki tomoniga ham shunday angob berilgan edi. Idishlar, asosan, kulolchilik charxida tayyorlangan. Ma'lum miqdorda charxsiz tayyorlangan sopol idishlar ham uchraydi. Balandtepada qadah, piyola, xurma va kosa kabi idishlar ko'p bo'lib, ularga xos belgilar ushbu komplekslarni milodiy I-III asrlar bilan sanalashga imkon beradi. Ushbu davr materiallari ichida sirtiga tirnab naqsh solingan sopollar ham uchraydi. Vodiya ushbu tipdagi sopollar keng tarqalgan edi va ularning sanasi esa milodiy I-II asrlariga to'g'ri keladi.

1989-1992-yillari 2-qazishmada, yana №1 shurfda o'tkazilgan qazishmada ham shu tipdagi sopol idishlar uchraydi. Balandtepa arkining tashqi devori madaniy qatlam ustida qurilgan, uni ostidagi qatlam ko'lami esa ko'p emas.

Devor sharqdan g'arba yo'nalishida bo'lib, u paxsa va g'isht aralashtirib qurilgan, ya'ni paxsa bo'laklari o'rtasiga 46x23x9, 46x23x10, 44x22x? sm. o'lchamli g'ishtlar qator qo'yib terilgan. Qala relef jihatidan eng baland nuqtada joylashgan va uning to'rt burchagida to'rtta kuzatuv minoralari ham bo'lgan. Ulardan shimoliy tomondagisi





ikkitasi saqlangan, janubdag'i 2tasini Sirdaryo yuvib ketgan. Dastlab shahar kichikroq qal'a-qo'rg'on ko'rinishida bo'lgan. Uning maydoni 2,5 hektardan oshmagan (100x90 m). Bu Balandtepa shahar madaniyatining birinchi davri edi.

II bosqich V-VIII asrlarni o'z ichiga oladi. Balandtepa va shahar qabristonidan (Munchoqtepa I, II) topilgan materiallar aynan ushbu davr bilan bog'lanadi. Bu davrga taalluqli qatlamlar va qurilish qoldiqlari ark ichida va ichki shaharda ham aniqlangan. Asosiy sana beruvchi material kulolchilik mahsulotlari bo'lib, ular ikki xronologik davr bilan xarakterlanadi. Ammo ilk o'rta asrlar davri shahar sanasini aniqlashda asosan Balandtepa arki va ichki shahar materiallariga asoslanildi.

Balandtepada madaniy qatlamlar qalinligi 2-5 metrga boradi. Bu qatlam materiallari xronologik jihatdan milodiy eraning birinchi asridan to VII-VIII asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda arkning saqlanib qolgan qismining maydoni 6 hektar. Ark mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Qal'a masalasiga kelsak, u bir necha vazifani bajargan: mahalliy hukmdorlar qarorgohi va notinchlik paytlarida atrof aholi uchun boshpana, xavfsiz makon bo'lgan. Ichki shaharning mudofaa devorlari bo'lganmi, yo'qmi, hozircha biror narsa deyish qiyin, chunki tekshirishlarda mudofaa inshootlari ichki shahardan topilmadi. Ta'kidlash joizki, Pop shahar xarobasining antik davri to'g'risida XX asrning 80-yillarida Axsiketda ilmiy qidiruv ishlari olib borgan arxeolog I.Axrarov o'z xulosalarini bergen edi. Hozirgi kunda ushbu fikr o'z tasdig'ini topmoqda.

Balandtepedan va uning yaqinidagi qabristondan V-VIII asrlarga oid arxeologik komplekslarning topilishi uni shahar markazi bo'lganidan dalolat beradi. Bu shahar qadimgi Bob, G'ovasoy irrigatsiya rayoni yoki vodiyning shimoliy qismini ma'lum bir vaqtagi markazi bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki, ushbu yodgorlikda V-VIII asrlarga oid madaniy qatlamlari qalin, uning arxeologik komplekslari to'la va mukammaldir. Maydoni bo'yicha ham Balandtepaga teng keladigan yodgorlik hozircha topilgani yo'q. Kosonsoy (Mug'tepa)da V-VI asrlarga oid qurilish bosqichlarining yo'qligi yoki ushbu davr madaniy qatlamlarini hatto Axsiketda ham kam uchragani ham ushbu fikrimizni bevosita tasdiqlaydi, deydi B.Matboboyev.

III bosqichga somoniq-qoraxoniylar davriga oid moddiy madaniy qatlamlari uncha katta emas. Chunki IX-XIII asr boshlariga oid shahar hududi ekin, ekinzorlar va qurilish maydonlariga aylantirilib tekislab yuborilgan. Bu davr qatlamlari 1995-yili Munchoqtepa I, II larning g'arbiy tomonida aniqlangan edi. XI-XIII asr materiallari topilgan joyni Munchoqtepa VII deb belgilandi. Deyarli buzilib ketgan kichkina tepalikda uchta badrab va ikkita xo'jalik o'rasi tozalanib, ko'p ashyolar olindi. Bu yerdan yopiq holda ma'lum bir davr majmuasi topildi. Ular orasida sirlangan va sirlanmagan, qo'lda tayyorlangan sopol idishlar ham bor. Sirlangan sopollardan tim yashil rangli, sarg'ish va jigar ranglilari ko'pchilikni tashkil etadi. Ba'zi hollarda idish sirtiga chizilgan naqsh ustidan sirlab jilo berilgan. Ularga o'xshash sopollar - Axsiket, Qorabuloq, Ana-Qizil yodgorliklarida, shuningdek, Katta Farg'ona kanali qurilishi davridagi arxeologik kuzatishlar paytida topilgan.





1989-yili shu davrga oid tangalar xazinasi topildi. Xazina 36 dona fulslardan iborat bo'lib, Somoniylar sulolasi davrida Buxoro, Samarqand va Farg'onada X asr ikkinchi yarmida zarb etilgan (B.D.Kochnev tomonidan aniqlangan). Somoniylar davriga oid (o'lchamli) g'ishtlar, chirog'donlar, shisha idishlar tez-tez uchraydi. Bulardan tashqari yer osti shahar suv tarmoqlarining bir qismi (sopol quvurlar) va qoraxoniylar davriga oid hammom qoldiqlari topilgan bo'lib, ular Balandtepa III davriga oiddir. Kulolchilik charxida yasalgan qozonlar, o'nlab simob ko'zachalar ham o'z shakli-shamoyili, ishlov berilishiga qarab shu davr bilan belgilanadi. Qoraxoniylar davriga to'g'ri keladigan materiallar Balandtepani buzilib ketgan qismidan va Shomozor qishlog'idan topilgan. Bulardan tashqari XX asrning 50-60-yillarida Ushbu territoriyadan topilgan va 289-359-hijriy (962-970) yillarda zarb qilingan tangachaqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. X-XII asrlarga kelib shahar maydoni hozirgi Pop shahrining janubiy chegarasigacha kengaygan va hunarmandlar shahriga aylanadi. Uning qoldiqlari XX asrning 40-50-yillarida T.G.Obolduyeva tomonidan qayd etilgan. Tadqiqotchilar juda ko'plab ishlab chiqarish chiqindilari: toshqol, erib ketgan sopol tashlandiqlarini uchrashini qayd qilganlar. Ular hunarmandchilikning ko'p sohalarini ayniqla metallurgiyani rivojlanganini ta'kid etadilar. Bu fikrni yuqoridagi yodgorliklar yaqinida ko'plab tarixiy metall konlari (ayniqla temir rudasi) joylashgani ham tasdiqlaydi. Metall eritishga mo'ljallangan bir necha xumdonlar va gilqozonlarning namunalari g'isht zavodi qurilishi vaqtida ko'plab uchratildi. Aftidan III davrning boshlarida (IX asr) noma'lum sabablarga ko'ra shaharda hayot to'xtagan ko'rindi. Chunki bu davrga oid materiallar deyarli uchramaydi. Shahar qabristonida ham VIII asrdan keyingi asrga oid qabrlar aniqlanmadı. Demak, somoniy-qoroxoniylar sulolasi davrida Pop shahri Balandtepada emas, balki uning buzilgan Ayrtom (Munchoqtepa) arxeologik yodgorligi o'rnida rivojiana borgan. Bob shahri haqidagi o'rta asr yozma manbalaridagi ma'lumotlar ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. Ularda keltirilishicha, Pop (Bob)dan Axsiketga, undan Janubiy Farg'ona tomonga yo'l o'tgan. Manbada yozilishicha, «Bob-Shosh daryosi bo'yidagi katta va boy shahar» XIII asr boshlarida Bob shahri Shimoliy Farg'onadagi boshqa shahrlar kabi Xorazmshoh Muhammad tomonidan buzib tashlangan bo'lishi mumkin. Shundan so'ng shaharda hayot to'xtagan. Agarda shahar hududida topilgan bir-ikki topilmalarni hisobga olmaganda shaharning so'nggi o'rta asrlar davriga oid ma'lumotlar uchramaydi. So'nggi o'rta asrlar davriga tegishli materialar Langarbobotepa, O'rdatepa yodgorliklarida uchraydi. Ularga sirlangan chirog'lar, sopol parchalari (havorang sirlangan) kiradi. Yana «Shomozor» qishlog'i chekkasida XX asrning 80-yillarida aniqlangan maqbara qoldig'ini ham keltirib o'tish mumkin. U 27x16x3, 25x15x2,5 sm. o'lchamli g'ishtlardan tiklangan va 30-yillarda buzilib ketgan. Hozirda ayrim g'ishtlari va poydevor bo'lagi saqlangan xalos. Xo'jalik qurilishi paytida topilgan arxeologik materialarni hisobga olganda, so'nggi o'rta asrlar shahri Pop shahri, uning hozirgi markazining janub va g'arbiy chegaralarini egallagan. Aynan shu shahar (qo'rg'on) haqida Z.M.Bobur shunday yozadi: «Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidur. Poplik(lar) Pop





qo'rg'onini berkitib bizga kishi yiboribturlar. Sayid Qosimni bir necha yigitlar bilan yiborildi. Axsining yuqorig'i kentlarining to'g'risidin daryoni o'tib borib, Pop qo'rg'onig'a kirdilar» [6, 99].


Demak, arxeologik topilmalarga ko'ra Bob (Pop) shahri mil. avv. I asr oxirlari – milodiy era boshida qad ko'targan shahar bo'lib, u tabiiy geografik jihatdan juda qulay joyda paydo bo'lgan. Ushbu shahardan Buyuk ipak yo'li o'tgan, ya'ni ipak yo'lining serqatnov chorrahasida joylashgan. Shuning uchun ham Balandtepaning shimoliy tomonidan o'tuvchi yo'l hozirgacha «Ulug' Yo'l» deb ataladi. Shuningdek, Popdan Qo'qonga Sirdaryo orqali o'tish joyi (parom) izlari ham Balandtepa yaqinida saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, vodiyning ilk o'rta asrlarga oid shaharlarida keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida ularning tuzilishi, moddiy madaniyati va rivojlanish bosqichlari borasida juda ko'p yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Jumladan, Balandtepadagi arxeologik qazuv ishlari natijasida Farg'onaning ilk o'rta asrlar madaniyati tarixini o'rganish uchun yangi arxeologik kompleks qo'lga kiritildi. 1987–1996-yillarda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijalarida shahar xarobasidan ilk o'rta asrlar materiallari topib o'rganildi. Qadimgi Pop (Balandtepa) shahrining paydo bo'lishi va rivojlanishi dinamikasi ochib berildi. Birinchi bor ushbu shaharning urbanizatsiya tarixi bosqichlari ishlab chiqildi.

Olingen natijalar asosida Farg'onaning ilk o'rta asrlar shaharlarining rivojlanishi O'rta Osiyo urbanizatsiya jarayonlaridan orqada qolmaganini va shu bilan birga faqat vodiy uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rishmiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулахатов Н., Фозиев Т. Бурхониддин Марғиноний: тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 350 б.
2. Ахаров И. Античная керамика с поселений Северной Ферганы// ТД Всесоюзной научной совещание «Античная культура Средней Азии и Казахстана. – Ташкент: Фан, 1979. – С.107-109.
3. Бернштам А.Н. Дневник. Архив ИИМК РАН. Ленинград. Ф35 Д158. – Л, 1948б.
4. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая// МИА. №26. –М.-Л., 1952. – 346 с.
5. Воронец М.Э. Археологическая рекогносцировка 1950 года по Наманганской области// И АН УзССР. Вып. 5. –Ташкент, 1951. – С. 93-97.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Ташкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.
7. Исамиддинов М.Х. Разведочные работы в Наманганской области// АО 1983 г. – М., 1985.





8. Исомиддинов М., Алохунов А. Фарғона водийиси бронза ва темир даврида. – Фарғона, 2021. – 184 б.
9. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала// КСИИМК. Вып. 4. – М., 1940. – С. 52-54.
10. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 2009. - 408 б.
11. Матбобоев Б., Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон: Мерос, 1994. – 72 б.
12. Спришевский В.И. Дневник работ археологического отряда Памиро-Ферганской экспедиции в 1950 г. Архив музея истории. – Ташкент. 1950.
13. Халмуминов У. VI-VIII асрларда Фарғона водийсидаги етакчи шаҳар марказлари. "Science and Education" Scientific Journal. September 2021 / Volume 2. – Б. 79-92.
14. Alokhunov A. From the history of studying the archeological ruins of the city of Kuva (Qubo). Central Asian journal of social sciences and history Volume: 03. Aug. 2022. – P. 63-67.
15. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-34944-1.html>
16. Isomiddinovich, A. O., Maxmanazarovich, A. D., & Dilmurodovna, K. T. (2022). PROBLEMY AND PERSPECTIVE ECOLOGIZATION SELSKOGO HOZYAYSTVA NA OSNOVE ECOLOGO-HOZYAYSTVENNAYA OTSENKA TERRITORII. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 568-575.
17. Абдуракҳмонов, Д. М. (2022). ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА ГИДРОГЕОЛОГИК ШАРОИТИНИ ЁМОНЛАШУВИ ВА УНИ ОҚИБАТЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 563-567.
18. Абдурахмонов, Д. М. (2019). ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ДИНАМИКА ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ. Экономика и социум, (12), 154-157.
19. Абдураҳмонов, Д. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ-ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 314-317.
20. Абдурахмонов, Д. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. ЙОДКОР О'QITUVCHI, 2(21), 58-63.

